



**Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilari**  
**Toshkent pediatriya tibbiyot institutining “Davolash ishi”, “Pediatriya ishi”, “Oliy hamshiralik ishi”**  
**va “Tibbiy biologiya ishi” bakalavriat ta’lim yo’nalishlariga suhbat asosida o’qishga qabul qilish**  
**bo’yicha**

**BAHOLASH MEZONI**

2022/2023 o’quv yilida texnikumlarning “Hamshiralik ishi”, “Feldsher-Akusherlik ishi”, hamda “Feldsher-laborantlik ishi” o’rta maxsus professional ta’lim mutaxassisliklari bo’yicha bitiruvchilarini suhbat asosida o’qishga qabul qilish uchun institut tomonidan ishlab chiqilgan savolnomalar O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi 17-son qarori bilan tasdiqlangan “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo’nalishlariga suhbat asosida o’qishga qabul qilish tartibi to’g’risida”gi Nizomiga muvofiq tayyorlangan.

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo’yicha bittadan jami to’rtta savol beriladi:

1. Mamlakatda o’z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;  
2. Bakalavriat ta’lim yo’nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko’rsatish);

3. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o’qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o’z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

4. Tanlangan bakalavriat ta’lim yo’nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko’nikmalarning mavjudligi.

Har bir 1-3 savollarga **20 ball**dan, 4 savol – kasbiy bilimlarga **40 ball** ajratiladi, jami to’plash mumkin bo’lgan eng yuqori ball **100 ball**ni tashkil etadi.

Suhbat jarayonida talabgor tomonidan har bir 1-3 savollarning mohiyati Qonunlar, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlaridan foydalanilgan va har bir savolga oid muammolarni har tomonlama tahlil qilgan holda ochib berilgan hamda javoblarni tushunarli tarzda bayon etgan va ilmiy ma’lumotlarni umumlashtira olish salohiyatini namoyon etgan har bir savolning javobi uchun **“17-20” ball** qo’yilishi mumkin.

Savolning mazmuni ochib berilgan, me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan, lekin savollarga oid muammolarni har tomonlama to’liq tahlil etilmagan bo’lsa, har bir 1-3 savollarning javobi uchun **“14-16” ball** qo’yilishi mumkin.

Savolga javob berilgan bo’lsa, biroq fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatilsa, javoblar qonun hujjatlari va amaliyot tahliliga to’liq asoslanmagan bo’lsa, savollarga oid muammolarni har tomonlama to’liq tahlil etilmagan bo’lsa, har bir savolning javobi uchun **“11-13” ball** qo’yilishi mumkin.

Agar talabgor tomonidan 1-3 savollarning mohiyati to’liq yoritib berilmasa, savolga tegishli qonunlar va amaliy materiallardan to’liq yetarli darjada foydalanilmasa, hamda tahliliy xulosalar, takliflar asoslanmagan bo’lsa, har bir savolning javobi uchun **“0-10” ball** qo’yilishi mumkin.

4 savol - Tanlangan bakalavriat ta’lim yo’nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko’nikmalarning mavjudligi bo’yicha talabgor savolga to’liq javob berib, mazmun va mohiyatini tushuntrib berganda, o’z fikr va muloxazalariga ega bo’lib va uni ximoya qiladiganda, tibbiyot terminlaridan to’g’ri foydalanganda javobi uchun **“34-40” ball** qo’yilishi mumkin.

4 savolga talabgor javob berib, lekin mazmun va mohiyatini tushuntrishda savolga oid muammolarni har tomonlama to’liq tahlil etilmaganda, tibbiyot terminlaridan to’g’ri foydalanganda javobi uchun **“28-33” ball** qo’yilishi mumkin.

4 savolga talabgor qisman javob berib, mazmun va mohiyatini tushuntrishda har tomonlama to’liq tahlil etilmagan bo’lsa, tibbiyot terminlaridan foydalanishda ayrim hatoliklar mavjud bo’lsa, javobi uchun **“22-27” ball** qo’yilishi mumkin.

4 savolga xattoki qisman sayoz tarzda javob bermagan, asosiy va ikkinchi darajali tushunchalarni ajrata olmaydigan, tibbiyot terminlaridan to’g’ri foydalanmaganda, javobi uchun **“0-21” ball** qo’yilishi mumkin.

Suhbat komissiyasi tomonidan rasmiylashtirilgan yakuniy natijalarini qayd etish varag’iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a’zolari tomonidan qo’yilgan ballarning o’rtachasi **67 ball va undan yuqori** bo’lganda abituriyent suhbatdan o’tgan hisoblanadi.

TashPMI qabul komissiyasi mas’ul kotibi:

M. Nishantayev